Xususan, O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tizimida “O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi” faoliyat ko‘rsatib, uning tarkibida 20 dan ortiq yirik subyektlar faoliyat ko‘rsatadi. Ularning aksariyat davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etilgan bo‘lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Mazkur korxonalar

Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-noyabrdagi 458-son qarori bilan tasdiqlangan “Telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalash to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi.

Korxonaning axborot infratuzilmasini optimallashtirish tarmoq infratuzilmasi, serverlar va ma’lumotlar omborlarini, shuningdek, xavfsizlik va ma’lumotlarni zaxiralash tizimlarini optimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu tizimning ishonchliligi va mavjudligini oshirishga, shuningdek, resurslardan foydalanishni optimallashtirishga imkon beradi.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda, mamlakatimizda telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘rni beqiyos bo‘lib, turli manbalarda telekommunikatsiya korxonalari tizimiga har xil ta’riflar keltirilgan.

Xususan, D.N.Lavrovning fikricha “Axborot xizmatining axborot ekanligini aniqlash mumkin bo‘lgan xususiyatlardan biri bu Interaktivlikning yo‘qligi yoki mavjudligi. Agar ikkala abonent ham Real vaqt rejimida xizmat ko‘rsatishda samarali bo‘lsa, xizmat interaktiv deb nomlanadi. Telefonda gaplashish ham interaktiv xizmatdir. Faqat tarmoq orqali uzatiladigan ma’lumotlarni oladigan abonent interaktiv xizmat emas. Bunday xizmatlar: radio va televideniye xizmatlari, shuningdek, ushbu turdagi xizmatlar turli xil veb-saytlar tomonidan taqdim etiladi. Bu erda foydalanuvchi so‘rovnoma savollariga javob berib, sayt tarkibini ko‘rishda faol ishtirok etishi mumkin, shuning uchun xizmat interaktiv yoki yo‘qligini aniqlash qiyin” [1].

A.N.Berlinga ko‘ra “Ishbilarmonlar va tadbirkorlar uchun mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga o‘z vaqtida javob bera olish juda muhim, buni telekommunikatsiya kompaniyalarini ochish tajribasi ko‘rsatadi. Bularning barchasi kompaniyada doimiy nazoratni o‘rnatish, biznes jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlari va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun zarurdir. Avtomatlashtirish har qanday telekommunikatsiya kompaniyasining asosiy afzalliklaridan biridir. Shu tufayli asosiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va yig‘ish samaradorligi oshadi” [2].

M. M. Shakirov va S. V. Kiselyovlar ta’kidlaganidek, “mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko‘rsatish zanjirining asosiy bo‘g‘inlari telekommunikatsiya xizmatlarini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va xizmatni mavjud bo‘lgan davrda qo‘llab-quvvatlaydigan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotdir” [3].

Xizmat iste’molchisi qo‘shimcha ravishda konsalting, moliyaviy, marketing va sotuvchilar hamda boshqa tashkilotlar kabi turli xil atrof-muhit tuzilmalari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish jarayonida iste’molchilar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari eng ko‘p bo‘lishi mumkin, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot bilan tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik va boshqa jihatlardagi turli xil munosabatlar, keyinchalik xizmat ishlab chiqaruvchisi va xizmatning raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi.

Bu shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish faoliyati ma’lum bir xizmat turi sifatida telekommunikatsiya xizmatlari va shuning uchun ularni ishlab chiqaruvchi korxonalarning raqobatbardoshlik darajasini oshirishning ajralmas qismi va muhim omili hisoblanadi.

Klassik iqtisodiy nazariyada tovarlar va xizmatlarning xususiyatlarini tasniflashning kamida uch turi mavjud. F. Kotlerning tasnifiga ko‘ra, mahsulot iste’molchi tomonidan uch o‘lchovda qabul qilinadi va quyidagi xususiyatlar guruhlariga ega:

- dizayn bo‘yicha mahsulot – ishlab chiqish va ishlab chiqarish jarayonida o‘rnatilgan mahsulot yoki xizmatning o‘ziga xos funksional xususiyatlari to‘plami (smartfonning texnik xususiyatlari, Internetga kirish parametrlari);
- haqiqiy dizayndagi mahsulot-ma’lum bir dizayn, ishlab chiqarish materiallari, ergonomika;
- xizmat, yetkazib berish, kafolatlarni o‘z ichiga olgan kengaytirilgan mahsulot.

J. Lamben tasnifida ko‘rsatilgan xususiyatlar, o‘z navbatida, quyidagicha belgilanadi:

- umumiy (funksional yordam dasturi);
- periferik (xizmat yoki mahsulotning asosiy funksiyasi bilan bog‘liq: samaradorlik, xizmat ko‘rsatish qobiliyati, qulaylik va boshqalar);
- qo‘shilgan (asosiy funksiya bilan bog‘liq emas, balki iste’molchilarni qondirish imkoniyatlarini kengaytirish: yangisini sotib olayotganda ishlatilgan mahsulot narxini hisobga olish va boshqalar) [5].

P. Dikson iste’molchilar uchun mahsulot xususiyatlarini quyidagi o‘lchamlarda ko‘rib chiqadi:

- asosiy sifatlar (barcha raqobatchi mahsulotlarda mavjud bo‘lgan funksional xususiyatlar to‘plami);
- qo‘shilgan sifatlar (raqobatdosh tovarlar sifatidan yuqori bo‘lgan tovarlar xususiyatlarining xususiyatlari) [6].

Telekommunikatsiya xizmatlarining mohiyatini ko'rib chiqqan holda yana bir iqtisodchi olim, N. V. Rebrikovaning ta'rifini keltiramiz: "telekommunikatsiya xizmatlari deganda - kompaniyaning texnik vositalar (telefon, telegraf, radio va boshqalar) yordamida belgilar, signallar, chizmalar, tovushlar va ma'lumotlarni uzatish yoki qabul qilish bo'yicha iste'molchilarga o'zaro manfaatli shartlarda faoliyatning yakuniy mahsuloti tushuniladi" [7].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish aksariyat mamlakatlar uchun ustuvor yo'nalishlardan biridir. Qoida tariqasida, ular "raqamli rivojlanish kun tartibi" ni amalga oshirishning uzoq davri va ustuvor yo'nalishlarning uzluksizligi bilan ajralib turadi - asosiy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini qurishdan tortib, ushbu sohada kelishilgan siyosatni shakllantirishgacha va keng tarqalgan raqamli texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraktsiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishi asosida aloqa tizimlari o'zgarib, integrallashgan bir qator tizimlar va ularning yangi turlari tarmoqga kirib keldi. Hozirgi kunda magistral, regional transport tarmoqlari 100 foiz raqamlashtirildi va umumiy telekommunikatsiya tarmoqlarining raqamlashtirish ko'rsatkichi 80 foizdan oshdi. Zamonaviy pog'onadagi rivojlanishda, kompyuterlashtirish nafaqat ekspluatatsiya nazorat apparaturalarini, telenazorat va boshqarishni, dispetcher punktlaridagi nazorat va tarmoqlarni boshqarish qurilmalarida mikroprotsessorlar texnikasi-vositalarini dasturlash, texnik kompleksini keng miqyosda qo'llashni, bundan tashqari avtomatlashtirish va axborotlarni uzatish, ulanish jarayonida ularni qayta ishlashni asosiy funksiyalarini takomillashtirish, texnik ekspluatatsiya konsepsiyasini va telekommunikatsiya tizimlarini va tarmoqlarini boshqarishni, yangi sifatli darajaga olib chiqish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishda telekommunikatsiya vositalarini takomillashtirishni uchta yo'nalishi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan. Yangi aloqa texnikasi - bu yuqori tezlikka ega bo'lgan, optik kabelda ishlaydigan, yuqori sathli dasturiy ta'minotga asoslangan raqamli uzatish tizimlari sohasidagi amalda yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning bilan birga orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi yaxlit tizimni shakllantirish yuzasidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, tovarlar va xizmatlarning sifatli bozorini shakllantirgan holda raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish va mustahkamlash, davlat aktivlarini boshqarishda bozor tamoyillarini joriy etish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategik rivojlanish hujjatlari, yangi qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlar rejalashtirilgan o'zgarishlar uchun asosiy g'oyasi bo'lishi lozim bo'lib, ularning bir qismi qabul qilingan, me'yoriy hujjatlarning boshqa qismini isloh qilish, shuningdek, yangi qonunlar qabul qilish ko'zda tutilgan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5614-sonli Farmoni asosida respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, valyuta bozorini erkinlashtirish, yuqori likvidli tovarlarni sotishning bozor usullarini joriy etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar aholining keng qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish uchun qulay shartsharoitlar yaratdi hamda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tub islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmonida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqaror, ijobiy o'sishini ta'minlash belgilab berilgan.

1-jadval: Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari[1]

| № | Yo'nalishlar | № | Yo'nalishlar |
|---|---|---|---|
| 1. | Sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish | 10. | Korxona ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish |
| 2. | Zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish | 11. | Innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish |
| 3. | Ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish | 12. | Savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish |
| 4. | Boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish | 13. | 2025-yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarning ulushini 90 foizga yetkazish |
| 5. | Sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, "Buyumlar interneti", "sun'iy intellekt" kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027-yilga kelib, apparat qismini esa 2030-yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliylashtirish | 14. | Kommunal xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun "aqlli uy" tajribasini joriy etish |
| 6. | 2022-yilda respublikaning barcha yirik shaharlarida jamoat transportlarida yo'l haqi to'lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va naqd pulsiz to'lovlar ulushini 90 foizga yetkazish | 15. | Har qanday yo'lovchi transportida chipta sotib olish uchun yagona platformani yaratish, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni Internet jahon axborot tarmog'i orqali sotish bozorlarini kengaytirish |
| 7. | Transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini amalga oshirish | 16. | Sug'urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug'urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish |
| 8. | Logistika tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida raqamli logistika tizimiga bosqichma-bosqich o'tish | 17. | Iqtisodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish va amalga oshirish |
| 9. | Yirik sanoat korxonalari uchun robototexnika va muhandislik ixtisosliklarini tashkil etish | 18. | Ishlab chiqarish korxonalarida addiktiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish texnologiyasi, 3D o'lchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish |

Mamlakat makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish, samarali fiskal siyosatni yuritish, soliqqa tortish tizimi va soliq ma'muriyatchiligini tubdan isloh qilish; asosiy resurslarni taqsimlashda bozor tamoyillarini keng joriy qilish asosida respublikaning raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tishi jarayonlarini tezlashtirish; fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va ularga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini mustahkamlash, aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlarini himoya qilish hajmlari va turlarini ko'paytirish; davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini yanada oshirish, xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash; tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha raqamli iqtisodiyotni yo'lga qo'yish nazarda tutilgan.

Barchamizga ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda televideniye to'liq ravishda raqamli texnologiyalardan foyalangan holda raqamli tarzda efirga uzatilmoqda. Bu borada Radioaloqa, radioeshittirish va televedienie markazi DUKning roli juda kattadir. Shu o'rinda raqamli radioeshittirish tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. Raqamli radioeshittirish - "bu raqamli axborotlarni radioto'lqinlar orqali simsiz uzatish texnologiyasi bo'lib,

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son farmoni

analog radioeshittirish tizimlaridagi radiochastota spektridan samarali foydalanish yoki analog radioeshittirish chastota polosasida juda yuqori sifat standartlari xizmatlarini ko'rsatish imkonini beradi. Shuningdek, xarakteristikalarining yaxshilanganligi, tan narxi va iste'mol etiladigan quvvatningpastligi bilan ustunlikka ega hisoblanadi".

Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi (RRTM DUK) faoliyatning asosiy yo'nalishlari: yer usti va sun'iy yo'ldosh aloqasi tizimlaridan foydalangan holda teleradiodasturlarni tarqatish bo'yicha xizmatlar; O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi tijorat studiyalarining teleradiodasturlarini, shuningdek xorijiy radiostansiyalarning radioeshittirish dasturlarini tarqatish (tarqatish) xizmatlari; Respublika aholisining o'sib borayotgan talabini qondirish uchun mavjud kabel televideniye tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni yaratish. Hozirgi vaqtda "O'zbekistonda raqamli televideniye joriy etish konsepsiyasi" ni amalga oshirish doirasida "RRTM" DUK O'zbekiston Respublikasida raqamli televizion eshittirishni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Radioeshittirish va televideniye markazining maqsadi aholiga samarali va ishonchli aloqa, radio va televideniye xizmatlarini ko'rsatish, ularning axborot, ko'ngilochar va ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashdan iborat. Markaz signal uzatish sifatini oshirish, qamrovni kengaytirish va barcha foydalanuvchilar uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish bo'yicha ish olib boradi. Markaz bozor talablaridan oldinda turish va odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun aloqa, radio va televideniye sohasida ham yangi texnologiyalar va standartlarni ishlab chiqmoqda.

Radioeshittirish va televideniye markazi DUKning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bulishi mumkin. Shuningdek, vazirlik roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq tijorat tashkilotlari, shuningdek ularda yuridik shaxslarning qatnashishiga yo'l qo'yiladigan notijorat tashkilotlar qatnashchisi (a'zosi) bo'lishi mumkin.

Izlanishlar jarayonida "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" davlat unitar korxonasining moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tahlil etilib, ular moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari asosida faoliyat samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tahliliy amallarni bajarish orqali ularning moliyaviy holatiga baho beriladi.

1-jadval: "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" DUKda faoliyat samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tahlili[2]

| № | Yillar | Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti | To'lov qobiliyati koeffitsiyenti | Aktivlar rentabelligi | Xususiy kapital rentabelligi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2017-yil | 0,276 | 2,362 | -0,291 | -0,622 |
| 2 | 2018-yil | -0,259 | 2,300 | -0,009 | -0,117 |
| 3 | 2019-yil | -0,463 | 0,722 | 0,001 | -0,001 |
| 4 | 2020-yil | -0,386 | 2,439 | 0,001 | -0,001 |
| 5 | 2021-yil | -0,069 | 4,991 | 0,002 | -0,003 |
| 6 | 2021-yilda 2017-yilga nisbatan o'zgarishi | 0,207 | 2,629 | -0,289 | -0,625 |

Quyidagi 1-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinadiki, telekommunikatsiya tizimi korxonalari faoliyati samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasida turlicha o'zgarishlar sodir bo'lgan. Xususan, "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" DUKda aktivlar rentabelligi -0,29 ga va xususiy kapital rentabelligi -063 ga teng bo'lgan. Shuningdek, "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" DUKda to'lov qobiliyati +2,6 koeffitsiyenti punktga oshganligi ma'lum bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, ushbu korxonada to'lov qobiliyati darajasi belgilangan me'yordan past ekanligi, moliyaviy mustaqillik darajasi tahlili o'tgan 2017-2021-yillarda tavsiya etilgan 0,15 koeffitsiyentdan past ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa mazkur korxonada aktivlari tarkibida chetdan jalb etilgan kapital hissasi yuqori ekanligni ko'rsati, bu esa korxonaning moliyaviy qaramligini oshirib, to'lov qobiliyatini pasayishiga olib keladi. Shuningdek, 2017-2021-yillar mobaynida "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" DUKning jami aktivlari va xususiy kapitali rentabelligi darajasi manfiy ko'rsatkich bilan chiqqanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa uning mazkur hisobot yillarida moliyaviy natijasi zarar bilan chiqqanligidan dalolat beradi.

Korxonaning axborot infratuzilmasini optimallashtirish tarmoq infratuzilmasi, serverlar va ma'lumotlar omborlarini, shuningdek, xavfsizlik va ma'lumotlarni zaxiralash tizimlarini optimallashtirishni o'z ichiga oladi. Bu tizimning ishonchliligi va mavjudligini oshirishga, shuningdek resurslardan foydalanishni optimallashtirishga imkon beradi. Axborot texnologiyalarini joriy etish va korxonaning axborot infratuzilmasini optimallashtirish kom-

2 Muallif hisob-kitoblari ("Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" DUK ma'lumotlari asosida).

pleks yondashuv va kasbiy bilimlarni talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Biroq, muvaffaqiyatli amalga oshirish korxona ishida sezilarli yaxshilanishlarga erishishga va uning bozorda raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

Telekommunikatsiya tizimidagi korxonalarning samaradorligi xizmat ko'rsatish sifati, tarmoqning mavjudligi, resurslardan foydalanish darajasi, mijozlarning qoniqish darajasi va moliyaviy ko'rsatkichlar kabi turli ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Telekommunikatsiya tizimidagi korxonalarning samaradorligini baholash uchun ma'lumotlarni tahlil qilish usullari, marketing va iqtisodiy modellar, shuningdek sifat va ishlashni boshqarish vositalari qo'llaniladi. Telekommunikatsiya sohasidagi korxonalarning samarali ishlashini ta'minlash uchun texnik innovatsiyalar va tartibga soluvchi talablarni ham hisobga olish muhimdir.

## XULOSA

Axborot texnologiyalarini joriy etish va korxonaning axborot infratuzilmasini sozlashni optimallashtirish uchun, birinchi navbatda, iqtisodiy munosabatlar subyektlarining o'zlari: kompaniyalar, ularning mijozlari va yetkazib beruvchilar, davlat organlari va boshqalar o'rtasida elektron aloqa o'rnatish kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, biz axborot texnologiyalari rivojlanishining G'arb yo'lidan bormoqdamiz. Shuning uchun G'arb IT rivojlanishining barcha ijobiy va salbiy tomonlarini, ularning boy tajribasini, to'plangan nazariy bilimlarini hisobga olish juda muhimdir. Shu bilan birga, qulay makroiqtisodiy sharoitlarda bir necha yil ichida axborot texnologiyalarini rivojlantirish sohasida yutuqlarga erishilishini kutish mumkin va bu holda O'zbekiston kompaniyalari korporativ elektron biznesni faol rivojlantirish bosqichiga o'tadilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish aniq marketing va xizmat ko'rsatish loyihalarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartirish, ularni amalga oshirishda samarasiz xarajatlarni kamaytirish, buxgalteriya hisobi, texnologik va boshqa turdagi hujjatlarni tayyorlashda xatolar ehtimolini bartaraf etish imkonini beradi, bu esa tijorat kompaniyasiga bevosita iqtisodiy samara beradi.Mamlakatning ko'plab yirik korxonalarida amalga oshiriladigan biznes jarayonlarini qisman avtomatlashtirishni o'zaro muvofiqlashtirish muammosini keltirib chiqaradi. O'zaro ishonchsizlik muhiti noqulay, ammo vaqt sinovidan o'tgan sherikni yo'qotish qo'rquvini keltirib chiqaradi. Bu yetkazib beruvchilar va xaridorlar doirasini kengaytirishga qaratilgan elektron tizimlarni joriy etish yo'lidagi yana bir to'siqdir.

Elektron biznes sohasi milliy axborot infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shu sababli, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining xalqaro standartlariga asoslangan davlat standartlari to'plami shaklida infratuzilmaning me'yoriy-texnik bazasini ishlab chiqish va amalga oshirish mamlakatning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi nuqtayi nazaridan juda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Лавров Д.Н. Сети и системы телекоммуникаций: учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2009 – 223 с.
2. Берлин А.Н. Телекоммуникационные сети и устройства. –М.: ИКФ "ЭКСМОС", –2011. –322 с.
3. Киселев С.В., Шакиров М.М. "Содержание, характеристика и классификация телекоммуникационных услуг как объекта исследования" [Текст]: Казанский национальный исследовательский технологический университет, статья в журнале - научная статья Год: 2013 Страницы: 311-316
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. М.: Издво Вильямс, 2007. –656 с.
5. Ламбен Жан-Жак. Стратегический маркетинг. Европейская перспектива. –СПб:"Наука",1996.–589 с.
6. Диксон П.Р. Управление маркетингом: –М.: БИНОМ, 2007.–650 с.
7. Н.В. Ребрикова. Организационно-методическое обеспечение процесса выведения пакетного продукта на рынок телекоммуникационных услуг. [Текст]: –Москва, –2012.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.